Tabiat bilan tanishtirish metodlari haqida tushuncha

Fuzuliyeva Adiba O'ktam qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa,
berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar.

I.A. Karimov

Annotatsiya: Ushbu maqola tabiat bilan tanishtirish metodlariga bag'ishlangan bo'lib, bunda metod nima, u qanday turlarga bo'linishi, tabiat bilan tanishtirish metodlari haqida, ularning qanday turlari mavjudligi yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Metod, tadqiqot yo'li, kuzatish, suhbat, amaliy metod, ko'rgazmali, og'zaki metod, tariyachi, tariyalanuvchi.

Абстрактный: Данная статья посвящена методам интродукции в природу, что это за метод, как он делится на виды, способы интродукции в природу и какие их виды объясняются.
Ключевые слова: Метод, метод исследования, наблюдение, интервью, практический метод, визуальный, вербальный метод, разработчик, разработчик.
Abstract: This article is dedicated to the methods of introduction to nature, what is the method, how it is divided into types, methods of introduction to nature, and what types of them are explained.
Key words: Method, research method, observation, interview, practical method, visual, oral method, developer, developer.

Metod (yunoncha "metodos"- bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot)- voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchu yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalarini amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi. Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lim metodini hosil qiladi.

Biror metodni qo'llashdagi harakatni amalga oshirish ko'rinishi deb shu harakatni batafsil tasvirlovchi ko'rinishga aytiladi. Bunda harakatning kuzatiladigan o'zgarishlari, vaziyatlari, tezligi va uning ortishi yoki sekinlashuvi, to'xtashlari, bir nechta harakatlarning bir vaqtdaligi yoki ularning vaqt oraliqlari, harakatlar natijasi, amaliy ishlar bajarish mashg'ulotlarida esa, ishlov berilayotgan shakllar, fazoviy holatlar, ranglar, qattiq-yumshoqlik, sirtlarning tekisligi yoki g'adir-budurligi o'zgarishlari va boshqa kuzatish mumkin bo'lgan turli harakat ko'rinishlari nazarda tutiladi.

Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli metodlardan foydalaniladi. Bu metodlarning eng umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish

operastiyalarining yoki yo'llarining yig'indisi deyish mumkin. Ushbu qo'llanmada metod tushunchasini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liq jihatlardan ko'rib chiqiladi. Shunga muvofiq ta'lim metodlari bilan bog'liq eng asosiy tushunchalarning izohlarini ko'rib chiqamiz.

Ta'lim metodi – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

Pedagogikada metod — pedagog va ta'lim oluvchining (bolaning) ma'lum ta'lim-tarbiyaviy natijasi: bilimlarni egallash, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, qobiliyatlarni o‘stirisha axloqiy sifatlar, xulq odatlarni shakllantirishga erishish uchun yo‘llangan hamkorlikdagi faoliyatining usulidir. Bolalar bog‘chasida bolalarni tabiat bilan tanishtirish jarayonida turli melodlardan foydalaniladi. Tabiat bilan tanishtirish metodlari uchta asosiy guruhga bo‘linadi:

Ko‘rgazmali uslub — kuzatish, rasmlarni ko‘rish, diafilm, kinofilm, ekskursiyalar; Amaliy uslub — o‘yin metodi, mehnat, oddiy tajribalar; Og‘zaki uslub — tarbiyachining hikoyasi, badiiy asarlarni o‘qish, suhbat.Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o‘z o‘lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi.

Tabiat bilan tanishtirishning ko‘rgazmali uslubi.

Kuzatish uslubi. Turli yosh guruhlarda bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachi ko‘rgazmali metod - kuzatishdan keng foydalanadi. Kuzatish - tabiat jismlari va hodisalarning tabiiy sharoitlarda maqsadga yo‘nalgan va bevosita hodisalarni borishga aralashmagan holda sezgilar bilan qabul qilib olishdir. Kuzatish murakkab bilish faoliyati bo‘lib, bunda idrok, tafakkur va nutq ishtirok etib, barqaror diqqat talab etiladi. Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda doimiy kuzatishlar olib borish ularning mantiqiy fikr yuritishi va nutqini o‘stirishda g‘oyat katta ahamiyatga egadir.

Bu haqda K.D.Ushinskiy shunday deydi: «Haqiqiy insoniy, aqliy nutq, to‘g‘ri mantiqiy fikr yuritishdan iboratdir, to‘g‘ri mantiqiy fikr yuritish esa, biz ko‘rsatgandek, boshqa biror narsadan emas, haqiqiy va aniq kuzatishlardan kelib chiqadi».Bolalarni tabiatdagi narsa va hodisalar bilan ma'lum bir tartibda tanishtirib borilsa, ularda diqqat va kuzatuvchanlik, tabiatga qiziqish, undagi hodisalarni bilishga intilish kuchayib boradi.Kuzata bilish — juda muhim xususiyat bo‘lib, bunda bolada to‘g‘ri yoza bilish, og‘zaki nutq malakalari rivojlanadi.Bolalarni hodisa va narsalarni maqsadga muvofiq holda o‘zlashtira olishga va ularning eng muhimlarini ajrata olishga o‘rgatish zarur.
Tarbiyachi kuzatish ishlarini olib borishda narsa va hodisalar o‘rtasidagi aloqa va sabablarning bog‘lanishlarini ilg‘ab olishni bolalarga o‘rgatishi kerak. Shunday qilib maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning tafakkurlari tabiat haqidagi aniq bilimlarni to‘plash orqali o‘sadi. Kuzatishlar diqqatni jalb qilish bilangina olib borilishi mumkin.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishda tarbiyachining hikoyasidan tabiat haqidagi badiiy kitoblarni o'qishlardan. suhbatdan foydalaniladi. Og'zaki uslub yordamida kuzatish va tabiatdagi mehnap jarayonida olgan bilimlari aniqlashtiriladi. to'ldiriladi, umumlashtiriladi. hamda bir tizimga solinadi. Shunday qilib, ogzaki uslub bolalarning tajribasi doirasidan chetga chiquvchi bilimlarni shakllantirish imkonini beradi. Og'zaki metodlardan foydalanish bir qancha

vazifalarni xal etadi. Tabiatga oid hikoyaning qimmati shu bilan anikdanadiki, u malum talimiy vazifaeini hal etar ekan, maktabgacha yoshdagi bolalarning tajriba va qiziqishlarini nazarda tutgan holda tuziladi va ma`lum yoshdagi guruh bolalariga mo'ljallanadi. Uning badiiy adabiyotni o'qishga nisbatan afzalligi mana shundandir. Hikoyani idrok etish bolalar uchun anchagina murakkab aqliy faoliyatdir. Bola kattalarning nutkini eshitishi va tinglay olishi, hikoya davomida uni anglab olishi ogzaki tasnif asosida etarlicha jonli obrazlarni faol tasavvur qilishi tarbiyachi himoyasidagi voqea-hodisalarning bir-biriga bogliqligi hamda munosabatlarni aniqlash va tushunishi, hikoya mazmunidagi yangiliklarni o'zining avvalgi bilimi bilan qiyoslab kurishi lozim. Bularning barisini tarbiyachi tabiat haqidagi hikoyasiga bo'lgan talablarni belgilaydi. Tilni jonliligi, obrazliligi, aniqligi -tarbiyachining hikoyasiga qoyiladigan mutloq talabdir. Hikoya uchun tarbiyachi xilma xil material: tabiatga oid shaxsiy kuzatishlari, ajoyib kishilarning hikoyalari, tabiat hodisalari haqidagi ocherklar va hikoyalar ilmiy materiallardan foydalaniladi. Suhbat didaktik vazifalardan kelib chiqqan holda: kirish suhbati va yakuniy suhbatga bo'linadi. Kirish suhbati tarbiyachi kuzatishlar, ekskursiyadan oldin qo'llaydi. Maqsad bo'lajak kuzatishlar bilan mavjud bilimlar o'rtasida aloqa o'rnatish maqsadida bolalarni bilimini aniqlashdir. Yakuniy suhbat bilib olingan dalillarni bir tizimga solish va aniqlashtirishga, mustahkamlashga yo'naladi. Suhbatning samarali bo'lishi bolalarni oldindan qanday tayyorlanganligiga bog'liq. Suhbat - bu ular bilan o'tkazilgan ishning yakunidir. Shuning uchun tarbiyachi oldida bolalarda kuzatishlar, mehnat faoliyati, o'yinlar, tabiatshunoslik, kitoblarini o'qish, hikoyalar orqali tasavvurlar hosil qilish vazifasi turadi. Tarbiyachi doimo suhbatni ta'limiy maqsadini aniq tasavvur qilishi kerak. Suhbat hodisa, dalillarni tahlil qilishdan, ularning xususiyatlari, belgilari, hodisalari o'rtasida muhim aloqa va munosabatlarni ta'kidlashdan boshlanadi.Bunday tahlil umumlashtirishga o'tishni ta`minlaydi, tarqoq dalillarni tizimga soladi. Suhbat tabiat bilan tanishtirish uslubi sifatida o'rta, katta, tayyorlov guruhlarida qo'llaniladi. Bolalar tabiatdagi mehnati katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Mehnat jarayonida bolalarda tabiatga nisbatan ehtiyotkorlik, g'amxo'rlik munosabatlari shakllantiradi. Tabiatdagi mehnat bolalarda burchlariga nisbatan mas'uliyatni his etib yondashishni tarbiyalaydi. Bolalar o'simlik va hayvonlarni parvarish qilar ekanlar, uning zarurligiga ishonch hosil qiladilar. Biroq tabiatdagi mehnatga nisbatan mas'uliyatni tarbiyalash uchun bolalar mehnat malakalarini egallab olgan bo'lishlari o'z mehnatlarining ahamiyatlarini tushunishlari lozim. Mehnat jarayonida bolalar o'simliklar holati ularning yorug'likka, namlikka, issiqlikka, yaxshi tuproqqa bo'lgan ehtiyojlarini qondirishiga bog'liq ekanligining anglab oladilar. Bolalar muhitning o'zgarishi qonuniy tarzda o'simliklar holatini o'zgartirishni bilib oladilar. Bu aloqa va o'zaro munosabatlarning egallab olinishi bolaning mehnatga bo'lgan munosabatiga ham ta`sir etadi, mehnat ancha ongli va maqsadga yo'llangan holda olib boriladi. Bolalarda mehnatga barqaror qiziqish, mehnatsevarlik shakllanadi. Tabiatdagi mehnat kuzatuvchanlikni o'stirishning usullaridan biridir. Bolaning tabiatdagi mehnati yakka topshiriq shaklida va kollektiv mehnat tarzida tashkil etiladi. Tabiatning oddiy hodisa va predmetlari haqida bolalarning tasavvurlarini kengaytirish maqsadida o'tkaziladigan kuzatishlar bilan bir qatorda turli uyinlardan keng foydalaniladi Bu uyiilarda bolalar sezuvchanlik tajribasini orttiradi, egallagan bilimlarini ijodiy o'zlashtiradilar. Bolalarni tabiat bilan tanishtirshda ta`limiy, harakatli, ijodiy uyinlardan foydalaniladi.

Xulosa

Metodlarni tanlashda tarbiyachi bolalarning yosh xususiyatlari, psixologiyasi, bilimlari, dastur talablari, o‘z o‘lkasi iqlimining tabiati, pedagogik tamoyillarga moslashadi. Yuqoridagi metodlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. P.A.Yusupova. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ekologik tarbiya berish. T.
2. "O'qituvchi". 1995 yil.
3. K.M.Jabborova. Maktabgacha yoshidagi bolalarga ekologik ta`lim-tarbiya berishning uziga xosligi. T., 2000 yil
4. J.Tulenov. E.Gofurov. Falsafa - T.; "O'qituvchi". 1997 yil.
5. J.Tulenov. Qodriyatlar falsafasi. T., "O'qituvchi". 1996 yil.
6. E.Y.Yusupov. Falsafa. T., "Sharq". 1999 yil.
7. A.K.Munavvarov. "Pedagogika". T., "O'qituvchi". 1996 yil.
8. A.To'xtaev, A.Xamidov. EkologiY. T.. "O'qituvchi", 1994 yil.
9. P.G.Samarukova. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish. T., "O'qituvchi", 1984yil.